

AXLOQIY EHTIYOJLAR TUSHUNCHASI VA RIVOJLANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544891>

Umarov Muhammadqodir Shokirali o‘g‘li

Alfraganus universiteti Falsafa
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada axloqiy ehtiyojlar tushunchasi va uning paydo bo‘lishining mazmun mahiyati ifodalangan. Axloqiy ehtiyojlar - insonning axloqiy va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlaridir. Ular, odatda, odamning shaxsiy va ijtimoiy hayotida to‘g‘ri va adolatli xatti-harakatlarni talab qilishga bog‘liq bo‘ladi. Axloqiy ehtiyojlarning paydo bo‘lishi insoniyatning tarixiy rivojlanishi va madaniy qadriyatlarining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, axloqiy ehtiyoj, axloqiy qadriyat, diniy e’tiqodlar, falsafiy tafakkur.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida faol o‘zgarishlar ketayotgan bir davrda jamiyat hayotidagi dolzarb muammolardan biri – jamiyat axloqiy muhitini takomillashtirishdir. Jamiyatda mavaffaqiyatli va barqaror munosabatlar o‘rnatish uchun ham axloqning ko‘p tomonlama rivojlanishi muhimdir.

Axloq insonga ato etilgan oliy ne‘mat hisoblanadi. Ana shu ne‘matni taraqqiy ettirish esa insonning burchidir. Kishi axloqi uning xulq atvorida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Axloqiy me‘yorlar hisoblangan uyat, or-nomus, ibo-hayo, farosat, andisha kabilar insonning qalb amri hisoblanib, bular orqali inson nafaqat o‘z-o‘zini, balki atrofdagilarni ham tartibga chaqiradi, tarbiyalab boradi. Shunday qilib axloqiy normalar va qonun-qoidalar vujudga keladi. Xo‘sh, axloq o‘zi qanday tuzilma? “Axloq” arabchadan olingan bo‘lib, “xulq” so‘zining ko‘plik shaklidur.¹ Demak inson odobi va hulq- atvori uning axloqini tashkil etadi. Inson demak, dastlab axloqni anglaydi, ya’ni axloqiy ong, axloqiy xissiyot va tasavvurga ega bo‘ladi, keyingina axloqiy xatti-harakatlarga, axloqiy munosabatlarga kirishadi. Axloq – insof va adolat, iymoniylik va halollik, mehr va muruvvat, sahovatpeshalik va bag‘rikenglik, rahmdillik va muruvvatlilik, mehribonlik va g‘amhurlik singari ma’naviy tushunchalarini insonning hayotiy faoliyatida yuzaga chiqaradigan ma’naviy hodisadir. Bu borada faylasuf olim E.Yusupovning «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. 8-bet.

idora qilish shakllari va me’yori, o’zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo’lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo’lishidir» – degan fikri diqqatga sazovor.² Axloq, bir shaxsning rivojlanishiga yordam bera oladigan va uning ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga ko’mak beradigan majmua. Bu, boshqa insonlarga hurmat ko’rsatish, ijtimoiy adolatga rioya qilish, xushdo’sstlik va insoniy g’oyalar bilan tanishish, o’z xato va kamchiliklarini qabul qilish va uning boshqalar uchun foyda olib borishni o’z ichiga oladi.

Shunday ekan, axloqqa ham ehtiyoj tug’iladimi? Ehtiyojlersiz ham axloqni shakllantirsa bo’ladimi? Axloqiy ehtiyoj o’zi nima? degan savol tug’ilishi tabiiy. Axloqiy ehtiyojlar – davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmush tarzini yaratishda, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishda vujudga keladigan axloqiy talablarni qondirishda, jamiyatning madaniy va ma’naviy o’zgarishlarini hosil qilib, uni taraqqiyotga yuzlantirishga xizmat qiladi.³ Demak, axloqiy ehtiyojlar inson ehtiyojlarining eng oliy ko’rinishi sifatida doimo yaxshilikka, ezgu amallarga, bunyodkorlikka, bilimga, kamolotga intilish, yuksak ideallarga ergashish orqali o’z – o’zini namoyon etadi, jamiyat taraqqiyoti darajasini tartibga oladi, yovuzlikdan asraydi, buzg’unchilikka qarshi kurashadi, axloqiy ideallarini yaratadi, jamiyat maqsad va manfaatlarining qanday g’oyalarga yo’nalganlik xarakterini o’zida ifoda etadi.

Axloqiy ehtiyojlarning tarixiy bosqichlari insoniyatning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlanishi bilan bog’liq holda shakllangan. Ularning paydo bo’lishi va o’sishi jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmalari, diniy e’tiqodlar, falsafiy tafakkur, iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlarga qarab rivojlangan. Dastlabki jamoa tuzilmalari, odatda, asosan ovchilardan va yig’uvchilardan iborat bo’lib, axloqiy normalar va qadriyatlar oddiy, lekin zarur bo’lgan hayotiy ehtiyojlarga asoslanardi. Miloddan avvalgi dastlabki yirik sivilizatsiyalar, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Yunoniston va Rimda, axloqiy qadriyatlar diniy e’tiqodlar va falsafiy tafakkur bilan chambarchas bog’liq bo’ldi.

Antik davr faylasufi Suqrot tashqi olam inson ehtiyojlarini qondiradigan darajada mukammal emasligini, Platon inson ehtiyojlarini qondirish aql-idrok izmida bo’lishi muhimligini ta’kidlaydi. Arastu ehtiyojlarga iqtisodiy jihatdan yondoshib, davlatning paydo bo’lishida ularning ahamiyatini tushuntiradi.⁴

Demokrit ham, bor umrini donishsevarlikka bag’ishlagan tarzda hayot kechirgan. Dunyoni anglash, o’zligini va haqiqatni anglash yo’lida badavlat oilaning

² Axloq falsafasi: darslik / L. Muhammadjanova, A. Sher, G. Shadimetova . - Surxondaryo: Fidokor Yosh Avlod, 2023.- 5-bet.

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/ahlo-iy-e-tiyozhlar-tushunchasi-va-uning-vuzhudga-kelishi>

⁴ J.A.Jabborov. MA’NAVIY EHTIYOJLAR YUKSALISHI JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA - (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI. Samarqand-2023 y. 11--bet

farzandi bo‘lishiga qaramasdan butun boyligidan voz kechdi, xatto o‘zini so‘qirlikka maxkum etib tafakkur ko‘ziga tayanishni istadi. Aql inson axloqiy ehtiyojlarini harakatga keltiruvchi kuch ekanligini, aqlga suyanib ish ko‘rilgandagina baxtga erishish, aks holda esa baxtsizlikka duchor bo‘lish mumkin. Demokrit “Avesto” g‘oyalariga hamohang ravishda axloqiy ehtiyojlarni qondirishning asosiy yo‘li yaxshi fikrlash, yaxshi so‘z, yaxshi amaldan iborat⁵ deb hisoblaydi.

Sharq-islom dunyoqarashi negizidagi buyuk allomalar Forobiy, Beruniy, IbnSino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy ijodiyotida ifodalangan inson ma‘naviyati haqidagi ijtimoiy g‘oyalar va qarashlarda inson tabiatining mazmun-mohiyatini aql, axloq, odob, til, mehnat qilish, moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish bilan bog‘lab tavsif hamda tasniflangan, tarbiyaviy muhitiga doir qimmatli fikrlar yoritilgan. Ular tomonidan ehtiyojlarning jamiyat kelib chiqishiga ta‘siri haqidagi qarashlarida zo‘ravonlik va majburlash ta‘limotini inkor etilgan, inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqidagi nazariya ilgari surilgan.

Buni mutaffakirlarning asarlari orqali ham bilish mumkin. Mutaffakirlarning ahloqiy qarashlari xulosasi insoniyat, adolat, va ijtimoiy barqarorlikning o‘sishi yo‘lida o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Ular, insonlarning bir-biriga adolatli, hurmatli munosabat qurish, bilim va ma‘rifatni rivojlantirish, va ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan tizimlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Bu xulosalar, Sharq davlatlarining tarix va madaniyatini shakllantirishda, ularning mustaqil fikrlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy ilmi, ma‘lumotli kishi bo‘lishning o‘zini odob-axloq va nafosat bilan bog‘laydi. Uning dunyoqarashida axloq masalasi insonning eng asosiy sifatleri safatida mujassamlashgan. Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan xolda tahrif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi deydi, u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo‘llaniladi. U yaxshi xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa xasadgo‘ylik, baxillik, nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.⁶

⁵ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. - Тошкент: Фан, 1993. – 73 б

⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/bola-tarbiyasida-beruniyning-axloqiy-tarbiyaga-oid-qarashlari>

Uningcha aqliy qobiliyatlar odamlarning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, axloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o‘zaro munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanib boradi.

Yolg‘onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g‘animlik, ichqoralik, qo‘pollik, o‘g‘rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o‘ziga bino qo‘yish, hushomadgo‘ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralanadi. Beruniy insonning ma‘naviy qiyofasini, xulq-atvorini yaxshilik va yomonlik axloqiy tushunchalar bilan belgilaydi.

Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta’rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonini sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo‘ladi, yomon illatlardan o‘zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim.⁷

Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asari boshqa ta’limiy-axloqiy asarlar kabi insonni barkamol etishning ikkinchi belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi.

Shuning uchun adib asarda axloqlilikning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol-dunyoga hirs qo‘yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik va kibru havo va ochko‘zlik haqida, zulm va jinoyat yo‘lidan saqlanish haqida, harom va halolni farqlay olish, e’tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar yuzasidan fikr yuritadi. U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan saqlanish yo‘llarini tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, axloqiy ehtiyojlarning tarixiy rivojlanishi insoniyatning madaniy, diniy, falsafiy va ijtimoiy o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda o‘zgarib borgan. Ular jamiyatlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy va siyosiy holatiga mos ravishda shakllanib, insonlarning o‘zaro munosabatlari, erkinliklari va baxtiyorligi bilan bog‘liq yangi ehtiyojlarni yaratgan. Bu bosqichlar orqali axloqiy qadriyatlar va ehtiyojlar global darajaga chiqdi, bu esa insoniyatning umumiy farovonligi uchun zarur bo‘lgan tamoyillarni ta’minlaydi.

Yuqoridagi fikrlar qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasida axloq inson tabiatining mahsuli, ta’lim-tarbiyaning natijasi, shuningdek, ehtiyojlar tizimining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilganligidan dalolat beradi. Ayni paytda axloqiy ehtiyojlarning mohiyat-mazmuni, ularni shakllantirish emas, shu bilan birga, axloqiy ehtiyojlarni qondirish masalasiga ham alohida e’tibor berishni taqozo qiladi va hamisha uning insoniylik mohiyati ulug‘lanib kelinadi.

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-ali-ibn-sinoning-falsafiy-qarashlarida-axloq-masalasi-va-uning-bugungi-kundagi-ahamiyati/viewer>

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Axloq falsafasi: darslik / L. Muhammadjanova, A. Sher, G. Shadimetova . - Surxondaryo: Fidokor Yosh Avlod, 2023.- 192 bet
3. J.A.Jabborov. MA’NAVIY EHTIYOJLAR YUKSALISHI JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA - (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI. Samarqand-2023 y.
4. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ahlo-iy-e-tiyozhlar-tushunchasi-va-uning-vuzhudga-kelishi>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/bola-tarbiyasida-beruniyning-axloqiy-tarbiyaga-oid-qarashlari>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-ali-ibn-sinoning-falsafiy-qarashlarida-axloq-masalasi-va-uning-bugungi-kundagi-ahamiyati/viewer>